


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70721701 - Kadastr magistratura  
mutaxassisligining***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Qarshi muhanjirlik-iqtisodiyot instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "01" 08 dagi 277 sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka shiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari taklif-lariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3.</b>	<b>Ilmiy faoliyat qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4.</b>	<b>Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirishga) qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>5.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	<b>10</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

**70721701 - Kadastr** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70721701-Kadastr** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari.**

**70721701 - Kadastr**—“Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish, kadastr agentligi va uning tizimidagi korxonalar hamda tashkilotlarda faoliyat yuritish, vazirliklar hamda uning tizimidagi korxonalar va tashkilotlarni kadastr xizmatini tashkil etish, markaziy va mahalliy boshqaruv organlarida davlat kadastrlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, mamlakatimiz iqtisodiyotini va infratuzilmasini xududiy rivojlantirish maqsadida geofazoviy ma'lumotlarni yig'ish va geoportallarini yaratish ishlarni tashkil qilish xamda davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish asosida davlat kadastrlarining integratsiyalashuviga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimini yaratish ishlarini amalga oshirishga oid kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalarni majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

oliy ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyat;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida ilmiy faoliyat;

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

qishloq xo‘jaligi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

favqulotda vaziyatlar vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

transport vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

raqamli texnologiyalar vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

energetika vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

mudofa vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarda;

xususiy kadastr va geodezik korxonalarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish muassasalari.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyati;

Ishlab chiqarish-texnologik va xizmat ko‘rsatish faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

loyihaviy-qidiruv faoliyati.

huquq-tartibot faoliyati:

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

**70721701 - Kadastr** mutaxassisligi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Ishlab chiqarish-texnologik va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

O'zbekiston Respublikasida Milliy geografik axborot tizimini yaratish;

kadastr xizmatidagi dasturiy ta'minotlardan, davlat kadastrlari maqsadlarida foydalanilgan geodezik va kartografik ishlarda qo'llaniladigan asbob-uskunalardan keng foydalanish;

ko'chmas mulklar kadastrlarining geografik axborot tizimi (geoportal)ni yaratishdayo'ldoshli navigatsiya tizimlarini qo'llash;

davlat kadastrlari yagona tizimi ma'lumotlaridan O'zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimini yaratishda dasturiy ta'minot, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi va injeneriyasidan keng foydalanish;

ko'chmas mulklar kadastr tizimiga masofadan zondlash tizimini joriy etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik echimlarni ishlab chiqish;

GAT texnologiyalaridan keng foydalangan holda tabiiy resurslarning monitoringini yuritish va istiqbolli prognozlash loyihalarini ishlab chiqish;

fazoviy ma'lumotlar sifatini baholash;

ishlab chiqarishdagi texnologik sxemalarni tahlil qilish va texnologik parametrlarni hisoblash;

amaliy faoliyatda instrumental vositalar va muhitlarni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

davlat kadastrlarini yaratish va yuritish

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

kadastr xizmatidagi ishlarni yuritish va muhandislik-geodezik qidiruvlarni bajarish buyicha normativ-texnik xujjatlarni ishlab chiqish;

texnik jihatdan asoslangan ishlab chikarish me'yorlarni ishlab chiqish;

dala va kameral sharoitdagi kadastr ishlarni rejalashtirish, tashkil qilish va yuritish;

kadastrni yuritish usullarini takomillashtirish bo'yicha tashkiliy- texnik tadbirlarni rejalashtirish;

kadastr ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

kadastr ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarini rejalashtirish;

kadastr xizmatida bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

kadastr ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

**Loyihaviy-qidiruv faoliyatida:**

ko'chmas mulklar kadastr xodimi sifatida kadastr xizmatidagi loyiha- izlanish ishlarini olib borishi;

yer tuzish va kadastr korxonalari tizimlarida geodezik tayanch tarmoqlari va turli mavzudagi raqamli elektron xaritalarni yaratish loyihalarini ishlab chiqish;

avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental hamda hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

**Huquq-tartibot faoliyatida:**

kadastr tizimida yer va ko'chmas mulkga bo'lgan huquqiy munosabatlarni tartibga solish;

yer va ko'chmas mulklardan foydalanish va muxofaza qilish ustidan davlat nazorati usullarini o'rnatish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, yerga oid nizolarni tartibga solish va yerlarni huquqiy muxofaza qilish;

yuridik va jismoni shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini tasdiqlovchi xujjatlarini rasmiylashtirish, yer fondi toifalari bo'yicha yerlarning huquqiy xolatini aniqlash, yerga bo'lgan mulkchilik huquqini, yer ijarasini, yerlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, yerdan foydalanish va yerlarni muxofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, yerga oid nizolarni xal qilish, yerlarni huquqiy muxofaza qilish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

kadastr xizmatida ishlab chiqarish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishda sohaga oid tamoyillarini qo'llay bilishi;

bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha kartografik, matematik, geinformatson modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat kadastrlari yagona tizini yaratish va yuritishni takomillashtirish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, davlat kadastrlari sohalarida echilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

davlat kadastrlari tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish

davlat kadastrlariga oid meyoriy-huqukiy hujjatlarni esptizadan o'tqaziishga doir ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lish

### **3. Ilmiy faoliyatga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy faoliyat** ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o'zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida kadastr sohasidagi ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

*Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash hamda himoya qilishga bo'lgan talablar:*

mustaqil tadqiqotchilik faolyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi;

axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalaridan foydalanib ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, ilmiy maqolalar tayyorlashga doir bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirish;

talabalarga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning eng yangi yutuqlariga asoslangan axborot bazalarini qo'llay bilish, ulardan magistrlik dissertatsiyasini bajarishda foydalanish ko'nikmasini singdirishi lozim.

*Ilmiy pedagogik ishlar:*

zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirish;

o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etish uquvi va ko'nikmalarini hosil qilishi lozim.

### **4. Ilmiy amaliyotga (tajriba orttirish) qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar tayyorlashda ilmiy amaliyot 4-semestrda o'tkaziladi. Bunda soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirish; fan, soha hamda boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishtirish; sohaga tegishli amaliy, kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllantirish; kasbga samarali moslashuv imkoniyatlarini ta'minlashi lozim. Bunda tajriba ilmiy amaliyotga yuborilgan magistratura talabasi o'quv jarayoni jadvalini individual grafik asosida bajarilishi ko'zda tutiladi.



5. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestr i
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1380</b>	<b>46</b>	<b>1, 2, 3</b>
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1306	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	180	6	3
1.03	FMM11212	Fazoviy ma'lumotlar modellari	360	12	1,2
1.04	DKTHM12312	Davlat kadastrlari tizimida huquqiy munosabatlar	360	12	2,3
1.05	DKYTM11106	Davlat kadastrlari yagona tizimi va ma'lumotlar integratsiyasi	180	6	1
1.06	DKGKT1206	Davlat kadastrlari geodezik va kartografik ta'minoti	180	6	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	<b>1, 2,3</b>
2.01	DKTSYT2304	Davlat kadastrlari tizimida sun'iy yo'ldosh texnologiyalari	120	4	3
	DKTFTT2304	Davlat kadastrlari tizimida foydalanayotgan texnika va texnologiyalar			
2.02	TIM2204	Ta'lim iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	2
	IKKMF2204	Investitsiyalar kiritishda kadastr ma'lumotlaridan foydalanish			
2.03	DKG2106	Davlat kadastrlari geoportali	180	6	1
	QXDFI2106	Qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanish iqtisodiyoti			
		<b>Jami:</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1, 2, 3</b>
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>			
3.01	ITIMDT2123438	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik disser-tatsiyasini tayyorlash	1140	38	1, 2, 3, 4
3.02	IPI1212312	Ilmiy-pedagogik ish	360	12	1, 2, 3
3.03	IA2410	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	300	10	4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>1, 2, 3, 4</b>
		<b>HAMMASI:</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	<b>1, 2, 3, 4</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Kadastr muhandisi, pedagog-tadqiqotchi</b>				

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistratura va bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, magistratura, konsalting, loyiha-qidiruv, pedagogik, ilmiy-pedagogik ish, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, magistrlik dissertatsiyasi, kadastr, ko'chmas mulk, bino-inshoot, turar joy, kadastr tizimi, yagona davlat kadastrlari tizimi, deshifirlash, monitoring, kartogramma, digitayzer, kartografik toposurat, xatlov, yer kadastr, kadastr axboroti, kadastr se'yomkasi, yuridik shaxs, jismoniy shaxs, ko'chmas mulk, umumdavlat miqyosidagi loyihalar, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi. dasturlari, texnologiya bo'yicha fototarxlar, kosmosuratlarni avtomatik ravishda deshifrovkalash, deshifrovka etalonlari banki, ortofotoplan, xo'jaliklar chegaralarini raqamlashtirish, geoinformatsion kartalashtirish, kartografiya, geofazoviy ma'lumotlar, infratuzilma.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari  
**ISHLAB CHIQLIGAN:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**



Rektor

*[Handwritten signature]*

S.M. Turabdjano

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti**



Rektor

*[Handwritten signature]*

O.SH.Bazarov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

*[Handwritten signature]*

M.Boltabayev



2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

"TIQXMMI" MTuning Qarshi  
irrigatsiya va agrotexnologiyalar  
instituti

Direktor

*[Handwritten signature]*

Z.M.Muqimov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi  
huzuridagi Kadastr agentligi  
Davlat kadastrlari palatasi  
Qashqadaryo viloyat boshqarmasi  
boshlig'i

*[Handwritten signature]*

H.S.Hamrayev

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

"O'zdaverloyiha» davlat ilmiy -  
loyihalash instituti "Qashvilerloyiha"  
bo'linmasi

Direktor

*[Handwritten signature]*

N.M.Xolov

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O'.

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti**  
**70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv**  
**rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar**  
**iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Qarshi sh. “ ” 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – QarMII rektori O.SH.Bazarov, “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktor Z.M.Muqimov, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i N.S.Hamrayev, “O'zdaverloyiha” davlat ilmiy-loyihalash instituti “Qashvilerloyiha” bo'linmasi direktori N.M.Xolovlar birgalikda QarMIIda ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligining Malaka talablari hamda o'quv rejasini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son Qarori hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida”gi 259-sonli hamda O'zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O'z DSt 3557:2021 “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.


Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsia etish mumkin.


Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori

O.SH.Bazarov

“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti direktor

Z.M.Muqimov

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasi  
Qashqadaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i  H.S. Hamrayev

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy –loyihalash  
instituti "Qashvilerloyiha" bo'linmasi  N.M. Xolov  
direktori

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan 70721701 -  
Kadastr magistratura mutaxassisligi bo‘yicha oliy ma‘lumotli magistrlar  
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga  
qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**TAQRIZ**

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta‘lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta‘lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta‘minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o‘quv rejasini O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamroyli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli, O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi “Oliy ta‘limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2024 yil 20 maydagi “O‘z DSt 3557:2021 “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori” O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 168-sonli buyruqlari, oliy ta‘lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Magistratura mutaxassisligi o‘quv rejasini kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta‘minlovchi mazmunda hamda kelgusida ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta‘lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan, magistrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va

texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashtirish sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalarining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligining Qashqadaryo viloyat  
boshqarmasi boshlig'i, qishloq xo'jaligi  
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**



**J.Z.Usmonov**

**Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan 70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotli magistrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TAQRIZ**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida 70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi malaka talablarini ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig'i va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirish kiritish to'g'risida” 2024-yil 18-yanvardagi PF-16-son Farmoni bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, magistrnlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiya-larga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg'or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lgan korxonalar va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.



Xulosa qilib aytganda, 70721701 - Kadastr magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**“TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o'quv bo'limi boshlig'i**



**dots. A.A. Abdiyev**

